

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL


9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

KO'CHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirdjalilova Dildora Shuxratovna

Toshkent arxitektura – qurilish universiteti dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0002-7993-6009

Annotatsiya

Ko'chmas mulkni boshqarish biznes sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi ko'chmas mulkning qiymatini oshirish va daromadlarini maksimal darajada ta'minlashga qaratilgan. Ushbu maqolada ko'chmas mulkni boshqarishning asosiy xususiyatlari va nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ko'chmas mulkni boshqarish sohasining o'ziga xos xususiyatlari, dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan. Ilmiy va amaliyotga oid manbalar asosida ko'chmas mulkni samarali boshqarishdagi asosiy omillar – qonunchilik bazasi, raqamlash jarayonlari, ijaraga oid munosabatlar, infratuzilmaviy rivojlanish va kadrlar salohiyati tahlil etilgan. Xalqaro va milliy manbalarga tayanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulkni boshqarish, ko'chmas mulkni boshqarish xususiyatlari, mulkni boshqarish usullari, ko'chmas mulk, boshqaruv, mulk huquqi, raqamlash, ijaraga oid munosabatlar, infratuzilma, qonunchilik, bozor samaradorligi, investitsiya muhiti.

Аннотация

Управление недвижимостью важно в сфере бизнеса, эффективность которого направлена на повышение стоимости недвижимости и максимизацию ее доходов. В данной статье проанализированы основные особенности и теоретические подходы к управлению недвижимостью, проанализированы особенности, актуальные проблемы сферы управления недвижимостью и пути их решения. На основе научных и практических ресурсов были проанализированы ключевые факторы эффективного управления недвижимостью – законодательная база, процессы цифровизации, арендные отношения, развитие инфраструктуры и кадровый потенциал. На основе международных и национальных источников разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: управление недвижимостью, особенности управления недвижимостью, методы управления недвижимостью, недвижимость, управление, право собственности, цифровизация, арендные отношения, инфраструктура, законодательство, эффективность рынка, инвестиционный климат.

Abstract

Real yestate management is important in the business sessor, and its yeffestiveness is aimed at insreasing the valuye of real yestate and maximizing its insome. This artisle analyzes the main features and theoretisal appoashes to Real Yestate Management and analyzes the spesifiss of the fiyeld of Real Yestate Management, surrent problems and ways to solve them. Based on ssiyentifis and prastisal resourses, the main fastors in the yeffestive management of real yestate – the legislative base, digitization prosesses, rental relations, infrastrusture development and personnel potential-are analyzed.

Prastisal resommendations have been developed, relying on international and national sources.

Keywords: real yestate management, real yestate management features, property management methods, Real Yestate, Management, property law, digitization, rental relations, infrastrusture, legislation, market yeffisiyensy, investment yenvironment.

KIRISH

Ko'chmas mulk inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida muhim o'rin tutadigan aktivlardan biri hisoblanadi. U jismoniy jihatdan o'zgarmasligi va muayyan joyda joylashganligi bilan boshqa turdagi mulklardan farq qiladi. Ko'chmas mulkka turar joy binolari, tijorat inshootlari, ishlab chiqarish obyektlari, yer uchastkalari, ijtimoiy infratuzilma va boshqa manzilli mulklar kiradi. Bu turdagi mulklar nafaqat shaxsiy yoki tijorat maqsadida foydalaniladi, balki investitsiya obyektlari sifatida ham iqtisodiy faollikda katta rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida ko'chmas mulkni boshqarish masalasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari, demografik o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar va xususiylashtirish siyosatlari tufayli bu sohada samarali boshqaruvga bo'lgan talab ortib bormoqda. Xususan, ko'chmas mulkdan oqilona foydalanish, uning qiymatini saqlash va oshirish, ijaraga oid munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, infratuzilmaviy rivojlanishni ta'minlash kabi masalalar mutaxassislar va siyosatchilar e'tibor markazida turibdi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, ko'chmas mulk iqtisodiy islohotlarning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan xususiylashtirish dasturlari, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, yer va mulk munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish harakatlari bu sohaga alohida ahamiyat berishni yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ko'chmas mulkni boshqarish faqatgina mulkdorning ishi emas, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bir qismi sifatida ko'rilishi kerak.

Shu bilan birga, ko'chmas mulkni samarali boshqarish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni — iqtisodiy, huquqiy, texnologik, marketing va ijtimoiy faktorlarni hisobga olish zarur. Mulk obyektlarini saqlash, modernizatsiya qilish, ularning bozor qiymatini aniqlash, foydalanishdan maksimal samaradorlik olish kabi vazifalar kompleks yondashuvni talab etadi. Boshqaruv jarayonida nafaqat mulkdorlar, balki davlat organlari, xususiy kompaniyalar, banklar va audit tashkilotlari ham ishtirok etadi. Bu esa sohadagi munosabatlarning murakkabligini va tizimli yondashuv zarurligini anglatadi.

Ko'chmas mulkni boshqarish masalasi hozirgi kunda iqtisodiy siyosat, jamiyat taraqqiyoti va shaxsiy mulkiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Urbanizatsiya, aholi o'sishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish, ko'p kvartirali uy-joylar va tijorat inshootlaridan samarali foydalanish kabi omillar bu sohadagi boshqaruv tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ko'chmas mulk nafaqat

ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi manba sifatida ham ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'chmas mulk bilan bog'liq munosabatlarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yer-mulkdan oqilona foydalanish, xususiy mulk huquqini mustahkamlash, davlat mulkini xususiylashtirish, elektron mulk reyestrini yaratish va raqamlash kabi islohotlar bu sohani boshqarishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ko'chmas mulk obyektlarining iqtisodiy faollikdagi rolini to'g'ri baholash va undan maksimal samarali foydalanish uchun boshqaruv jarayonini tizimlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

“So'nggi yillarda respublikamizda ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish sohasidagi davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ularning tezkorligini va foydalanish imkoniyatlarini oshirishni, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashni va xizmatlardan foydalanuvchilarga axborot xizmati ko'rsatishni yaxshilashni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, tegishli tizimlarni davlat organlarining elektron ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonini soddalashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi” [1].

Shu bilan birga, ko'chmas mulkning iqtisodiy qadriyat sifatidagi o'rnini belgilashda bir qator murakkab masalalar ham mavjud: bozor qiymatining noto'g'ri baholanishi, mulkdan foydalanishda samarasizlik, infratuzilmaning yetishmasligi, yuridik tartibsizliklar va boshqaruvda kadrlar yetishmovchiligi. Bu muammolar nafaqat mikro-darajada — alohida mulk obyektlari darajasida, balki makro-darajada — shahar va mamlakat miqyosida ham iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Demak, mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'chmas mulkni strategik asosda boshqarish iqtisodiy o'sishga turtki beradi, fiskal siyosatni mustahkamlaydi va investorlar uchun barqaror muhit yaratadi. Mazkur yo'nalishda davlat va xususiy sektorning hamkorlikdagi faoliyati, shaffof boshqaruv, raqamli texnologiyalardan foydalanish va normativ-huquqiy baza takomillashuvi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ko'chmas mulkni boshqarish mavzusini chuqur o'rganish va tahlil etish, ushbu sohadagi muammolarni aniqlash va yechim yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

MDH olimlaridan A.N. Asaul, V.A. Goremikina, V.V. Ivanova, I.I. Mazur, D. Fridman, N. Audrey va boshqalarning tadqiqotlari ko'chmas mulkni boshqarish masalalariga bag'ishlangan. G.G. Azgaldov, Yu. Baranova, I.M. Kozlov, S.U. Kopelchuk, A.A. Oganisyan, V.P. Oganessian, O.V. Panfilova, D. Sundaram, I.V. Safronov, A.M. Stepanyan, R.D. Strike, L.I. Suslova, R.N. Holt, G. Shan Paynter, J. Shumpeter va boshqa olimlarning ilmiy ishlari axborot texnologiyalarining iqtisodiy

faoliyatdagi o'рни va ularni ko'chmas mulk sohasida qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

Ko'chmas mulkni boshqarish murakkab va ko'p tarmoqli sohalarni qamrab oladigan faoliyat turi bo'lib, u iqtisodiyot, huquq, boshqaruv, marketing va shaharsizlik kabi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liq. Shu bois, mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilishda nazariy, amaliy va institutsional yondashuvlarni alohida ko'rib chiqish zarur. Turli mualliflar va tashkilotlar tomonidan yozilgan tadqiqotlar mazkur sohani turli tomonlama yoritgan bo'lsa-da, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tanqidiy baholash orqali umumiy manzara shakllanadi.

Ko'pgina iqtisodchilar ko'chmas mulkni iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi resurs sifatida baholaydi. J. Saks o'zining mashhur asarida iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri — yer va ko'chmas mulk resurslaridan samarali foydalanilmasligi hamda ularning mulk huquqlari noaniqligi ekanini ta'kidlaydi [2]. Uning fikriga ko'ra, mulk huquqlarining aniq belgilanishi investitsiya muhitini yaxshilaydi, iqtisodiy faollikni oshiradi va mulk obyektlarining qiymatini saqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, P. Romer o'zining tadqiqotlarida ko'chmas mulkni kapital jamg'arishning asosiy turlaridan biri sifatida ko'rib, uning tarkibiy qismi sifatida innovatsion infratuzilmalarga investitsiya yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Bunday yondashuvlar ko'chmas mulkni faqat moddiy obyekt emas, balki iqtisodiy tizimning muhim elementi sifatida baholashni rag'batlantiradi.

Biroq, mazkur nazariy modellar ko'pincha ideal sharoitlar asosida qurilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi mulk huquqlari, shaharsizlik muammolari yoki institutsional zaiflik kabi real omillar inobatga olinmagan. Shu sababli, ularni amaliy holatlarda qo'llashda ehtiyotkorlik talab etiladi.

F. Kotlarning esa marketing asosidagi boshqaruv nazariyasi ko'chmas mulk sohasi uchun muhim amaliy yo'nalishlarni taklif etadi. U ko'chmas mulk obyektlarini "mahsulot" sifatida qarab, ularning bozorga qiymatini oshirish uchun segmentlash, rebrending, raqobat tahlili, narx siyosatini aniqlash kabi marketing instrumentlaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Bu yondashuv ayniqsa tijorat ko'chmas mulkida samarali hisoblanadi [4].

Shu bilan birga, ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, marketing yondashuvi ijtimoiy va ekologik omillarni yetarlicha hisobga olmasligi mumkin. Misol uchun, tijorat jihatdan jozibali mulk obyektlari har doim ham ijtimoiy adolatni ta'minlamaydi yoki urbanistik barqarorlikni kafolatlamaydi. Demak, bu modelni boshqaruvda qo'llashda jamoatchilik manfaatlarini hisobga olish muhimdir.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan manbalar ko'chmas mulkni boshqarishda qonunchilik, shaffoflik va raqamlash kabi masalalarga katta e'tibor qaratadi. Masalan, OECD tashkilotining hisobotida shaharlarning raqobatbardoshligini oshirishda ko'chmas mulk siyosati qanday ta'sir ko'rsatishi haqida so'z boradi. Unda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining ishtirokini kuchaytirish, yer resurslarini boshqarishdagi institutsional o'zgarishlar tavsiya etiladi [5].

World Bank tomonidan e'lon qilingan "Doing Business" hisobotida esa ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish jarayonidagi samaradorlik, shaffoflik va vaqt xarajatlari baholangan [6]. Bu hisobot ko'plab mamlakatlar uchun solishtirma tahlil vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu manbalarning afzalligi — ular mustahkam ma'lumot bazasiga va keng qamrovli tahlillarga asoslangan. Ammo ularda milliy madaniy, huquqiy va ma'muriy farqlar yetarli darajada hisobga olinmagani bois, ularni to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish samarali bo'lmasligi mumkin.

O'zbekiston mutaxassislari tomonidan so'nggi yillarda ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, A. Mirzaev tomonidan respublikada ko'chmas mulk bozori rivojlanish tendensiyalari va uning huquqiy asoslari tahlil qilinib, amaliyotda uchrayotgan huquqiy va moliyaviy muammolar tavsiflangan. U, xususan, davlat bilan xususiy mulkdorlar o'rtasidagi munosabatlarda ochiqlik va shaffoflik yetishmasligini ta'kidlaydi [7].

B. Rahmonov tomonidan esa ko'chmas mulk sohasidagi institutsional mexanizmlar tanqidiy o'rganilib, ularning zaif tomonlari ochib berilgan. Uning fikricha, mavjud tizim ko'pincha reaktiv xarakterga ega bo'lib, uzoq muddatli strategik rejalashtirish yetishmaydi [8].

Mazkur milliy tadqiqotlar milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ko'chmas mulkni boshqarishga oid qimmatli ma'lumotlar bersa-da, ularda ilmiy modellashtirish, solishtirma tahlil va amaliyot uchun aniq instrumentlar yetishmasligi kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval

"Ko'chmas mulkni boshqarish" atamasini talqin qilishga yondashuvlar

Ta'riflar	Mualliflar yondashuvi
Bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar majmuini amalga oshirish (ularga xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni boshqarish, foydalanuvchilar (ijaraga oluvchilar) uchun shart-sharoitlarni yaratish, binolarni ijaraga berish shartlarini aniqlash, ijara haqini undirish va boshqalar) yeng samarali bo'lishi uchun. ko'chmas mulkdan egasining manfaatlarini ko'zlab foydalanishdir.	A. N. Asaul, X. S. Abayyev, Y. A. Molshanov [10]
Ko'chmas mulk obyektlarini ishlab chiqarish, iste'mol qilish va ayirboshlash jarayonlari, shuningdek, ko'chmas mulk obyektlarining foydali xususiyatlarini yaratish va o'zgartirishga qaratilgan ishlar va xizmatlar majmui.	J. A. Vasilenko [11]
Ushbu obyektдан foydalanish, egalik qilish va tasarruf yetish huquqi subyektlarining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun boshqaruv obyektining (bitta obyekt yoki obyektlar majmuasi) ishlashi va rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruv faoliyatining muayyan turlarini amalga oshirish.	P. G. Graboviy, Y. N. Kulakov, I. G. Lukmanov [12]
